

**TEMURIYLAR RENESSANSI DAVRIDA: TASVIRIY SAN'ATNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI****Hamdamov Islom Akramovich****Samarqand davlat chet tillar Instituti, dotsent****hamdamovislom79@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15515978>**

O'rta asrlar Markaziy Osiyoda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan barpo etilgan davlat nafaqat qudratli bir siyosiy markaz, balki yuksak madaniyat va san'at o'chog'iga aylandi. Bu davrda ilm-fan, bunyodkorlik, tasviriy va amaliy san'at kabi sohalarda jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shilgani ayni haqiqatdir. Xususan, tasviriy san'at Temuriylar davri madaniyatida muhim o'rin egallab, uning rivoji faqat estetik mezonlar bilan emas, balki siyosiy, ma'naviy va dunyoqarash mezonlari bilan ham chambarchas bog'liq edi. Musavvirlik, miniatyura, zargarlik, ganchkorlik va boshqa san'at turlarining yuqori saviyada rivoj topishi nafaqat hukmdorlarning san'atga bo'lgan ehtiromi, balki jamiyatda yangicha fikrlash uslubining shakllanishi bilan ham bog'liqdir. Mazkur tadqiqotda Temuriylar davrida tasviriy san'atning ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir qilgan omillar, ushbu san'at turlarining o'ziga xos jihatlari hamda ularning zamonaviy milliy o'zlik va madaniy merosda tutgan o'rni tahlil etiladi. SHu orqali, Temuriylar Renessansi deb nom olgan madaniy uyg'onish jarayonining jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri yoritilishi maqsad qilinadi. Temuriylar davrida tasviriy san'at mislsiz darajada yuksaladi. Ammo, Islom dinida jonli tanani rasmlarda tasvirlash taqiqlangan, ya'ni noo'rin hisoblangan. Natijada, inson qiyofasi, jonli tanalar o'rniga bezakchilik, naqqoshlik, gul va geometrik bezaklar, hayvonot va o'simlik dunyosiga oid obrazlar rivoj topdi. Ammo ushbu diniy cheklovlar Temuriylar davrida Movarounnahrda ma'lum darajada erkinlashdi, mo'tadillashdi. Muarrih Ibn Arabshoh Samarqandda joylashgan bir qator saroylarning devorlarini bezagan miniatyura shaklidagi tasvirlarda Amir Temurning o'zi, farzandlari va nabiralari, saroy malikalari va kanizaklarning obrazlari ham aks etganini qayd etadi. Ushbu san'at asarlari tasodifiy emas, balki bevosita Amir Temurning buyrug'i va siyosiy irodasi asosida yaratilgan. Temuriylar davri miniatyura san'atini tavsiflaganda Amir Temurning qiyofasi alohida qiziqish uyg'otadi, biroq amalda uning hayotligi davridagi tasviriga oid birorta miniatyura topilmaganligi e'tiborga molik holatdir. Biroq, "Zafarnoma"¹ning SHerozda 1435 yil, Hirotda² 1468 yil ko'chirilgan nusxalarida Sohibqironning asliga yaqin tasvirlari uchraydi. Ushbu miniatyuralarni rassom Kamoliddin Behzod yoki uning ustози Miroq Naqqosh tomonidan yaratilganligi haqida olimlar o'rtasida ziddiyatli qarashlar mavjud. Eng muhim jihati shundaki, miniatyurada Amir Temur Balxni istilo qilib, hokimiyatni qabul qilish marosimida taxt ustida bir oyog'ini bukib, ikkinchisini erga osilgan holatda tasvirlangan. Bu holatdan kelib chiqib, rassom hukumdorning tashqi ko'rinishi va harakatlariga alohida diqqat qaratgani, hatto odamning oqsoqligi kabi xususiyatlarni ham ko'rsatgani ma'lum bo'ladi. Temuriylar davri miniatyura san'atining yana bir muhim jihati, SHarafuddin Ali YAzdiyning "Zafarnoma"si va Xotifiyning "Temurnoma" asarlari ushbu davrning jangu jadal voqealarini

¹ Lentz N. W. and Lowry C.D. Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. Los Angeles, 1989, p.101-106.

² Lentz N. W. and Lowry C.D. Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. Los Angeles, 1989, p.359.

batafsil va badiiy ravishda yoritganidir. SHu bilan birga, diniy mazmundagi lavhalar kamdan-kam hollarda uchraydi, bu esa san'atning asosan siyosiy va tarixi mavzularga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. SHunday qilib, Temuriylar Renessansida miniatyura va devoriy tasvirlar hukmdorlar irodasining badiiy ifodasiga aylandi. Ibn Arabshohning qayd etishiga ko'ra: "uni shu kungacha bilmagan va G'arbu SHarqdan kelgan elchilar o'zlarini go'yo Amir Temur olamiga kirib qolganday his qilsinlar. Amir Temurning ezgu niyati shu edi"³. SHuningdek, Istambuldagi To'pqopi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan Amir Temurning farzandlari bilan birga chizilgan shajaraviy surati alohida diqqatga sazovordir⁴. Suratda Amir Temurning shajarasi tasvirlangan bo'lib, Sohibqiron turkcha kulohda, qolgan ikki shaxs esa ikki cho'qqili mo'g'ul qalpog'ini kiygan holda aks ettirilgan. O'rtada Mironshoh, uning o'ng tomonida Umarshayx va SHohruh, chapda esa Jahongir Mirzo va Sohibqiron o'z vorisi deb sanagan nabiralarning qiyofalari⁵ joy olgan. Mirzo Ulug'bek davridagi tasviriy san'ati haqida muarrih Abdurazzoq Samarqandiy quyidagi fikrlarni bildirgan: "Samarqanddagi rasadxonada to'qqizta falak shaklu shamoyili, etti gardish, etti yoritqich daraja, daqiqa, soniyalari va uning bo'limlari, shuningdek Er yuzi etti iqlimi, tog'lari, dengizlari, cho'llari ila tasvirlanganini bayon qiladi⁶. Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, Mirzo Ulug'bek davrida tasviriy san'atning devoriy suratlari mavzusi va mazmuni jihatdan juda rang-barang va keng ko'lamli bo'lgan. SHu bilan birga, XV asr miniatyuralarida asosiy mavzu sifatida sharq she'riyati qahramonlari, Layli va Majnun, Xusrav va SHirin hamda bahodir Rustamlarning jang sahnalari, shuningdek saroylardagi bazm va tantanalar tasvirlangan. Tadqiqotchilar ushbu miniatyuralarni tahlil qilish orqali ajdodlarimizning hayoti, saroy marosimlari, kiyim-kechaklari, asbob-uskunalari va qurol-yarog'lari haqida aniq va mukammal tasavvurlarga ega bo'lishadi. SHuningdek, miniatyura san'ati har bir davrning o'ziga xos badiiy va estetik hodisasi sifatida shakllanganligi ham ko'zga tashlanadi. YUqoridagi barcha miniatyuralarda sohibqiron va uning avlodlarining hayot faoliyati, ov manzaralari, janglari hamda saroydagi qabul marosimlari badiiy tarzda namoyon etilgan. Ba'zida rassomlar o'z asarlarida tarixiy va madaniy ahamiyatga ega binolarning bunyod etilish jarayonlarini ham aks ettirishgan. Jumladan, Kamoliddin Behzod Samarqanddagi masjid qurilishini tasvirlab, bu manzarani kelajak avlodga etkazgan. SHuningdek, miniatyuralarda turkiy xalqlarga xos badiiy xususiyatlar ham namoyon bo'ladi, bu esa miniatyuralarning Samarqand maktabiga xosligini ko'rsatadi. Masalan, Vashington shahridagi Frir galereyasida⁷ saqlanayotgan Mirzo Ulug'bek tasvirida ov manzarasi keng aks ettirilgan. Bu tasvir mashhurligi bilan e'tiborga molik bo'lib, unda Mirzo Ulug'bek, uning yonidagi gilamchalarda to'rt ayoli va shahzodalar, Abdullatif va Abdulaziz ko'rsatilgan. SHuningdek, rasmda saroy a'yollari, amirlar va beklar hukmdorga iltifot bilan qo'l tikkan holda, qo'llarida ovchi qush va o'q to'la sadoq bilan tasvirlangan. Temuriylar Renessansi davrida

³ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). I китоб. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: Убайдулло Уватов. Тошкент: «Меҳнат», 1992, 326 б.

⁴ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана, М. 1965. - с.294 – 295.

⁵ Массон М.Е. К истолкованию миниатюрн "Шахская охота". В кн. Из истории живописи Средней Азии. Традиции и новаторство. Ташкент, 1984, с.1 13

⁶ Самарқандий, Абдураззоқ . Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Мухаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. - Т.: О'zbekiston, 2008. Ж. II, Қ. 1: 1405—1429 йил воқеалари. - 632 б

⁷ Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И. Миниатюрм Средней Азии в избранных образцах. М., 1979, с.18, 60, рис. 4.

tasviriy san'at o'zining yuksak darajadagi uslubiy rang-barangligi va falsafiy mazmuni bilan ajralib turdi. Miniatur, naqqoshlik san'ati rivojlanib, ilm-fan va ma'rifat bilan chambarchas bog'landi. Temuriylar saroyidagi madaniy muhit tasviriy san'atning nafaqat estetik ko'rinish, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. SHu bilan birga, bu davr san'ati SHarq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi muloqotda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov I.A. Mirzo Ulu'gbek's attitude Sufism. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online Page 29-31 at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No.11, November 2023.
2. Hamdamov I.A. Mirzo Ulug'bek madrasasi mutafakkirlarining ma'naviy merosi. Mirzo Ulu'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Sharq ijtimoiy fanlar jurnali 5(02), 2025. - B.116-122. <https://supportscience.uz/index.php/ojss/article/view/1769>
3. Lentz N. W. and Lowry C.D. Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. Los Angeles, 1989, p.101-106.
4. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). I китоб. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: Убайдулло Уватов. Тошкент: «Меҳнат», 1992, 326 б.
5. Массон М.Е. К истолкованию миниатюрн "Шахская охота". В кн. Из истории живописи Средней Азии. Традиции и новаторство. Ташкент, 1984, с.1 13
6. Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И. Миниатюрм Средней Азии в избранных образцах. М., 1979, с.18, 60, рис. 4.
7. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана, М. 1965. - с.294 – 295.
8. Самарқандий, Абдураззоқ . Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. - Т.: О'zbekiston, 2008. Ж. II, Қ. 1: 1405—1429 йил воқеалари. - 632 б